



ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 21-iyun 2026 yil
Ma'qullandi: 23-iyun 2026 yil
Nashr qilindi: 25-iyun 2026 yil

KEYWORDS

odob, axloq, Qur'oni Karim, hadis, Islom, muomala, tavoze', sabr, ota-ona hurmati, g'iybat, shaxsiy hayot daxlsizligi.

ISLOM DINIDA ODOBNING AHAMIYATI

Mirzamiddinov Asliddin Abdumuminovich.

Toshkent islom insitituti o'qtuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20840052>

ABSTRACT

Mazkur maqola Islom dinida odob tushunchasining o'rni, ahamiyati va qamrovini Qur'oni Karim hamda Payg'ambar Muhammad ﷺ ning hadislarini asosida ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilishga bag'ishlangan. Maqolada odob nafaqat tashqi muomala madaniyati, balki iymonning ajralmas qismi, qalb pokligi va ruhiy kamolotning ko'zgusi ekanligi asoslab berilgan.

Tadqiqotda Qur'oni Karimning Qalam (4), Ahzob (21), Isro (23, 53), Luqmon (18), Nur (27) va Hujurot (12) suralari oyatlari tafsiriy tahlil qilinib, ular orqali Allohga, Rasulullohga, ota-onaga, qo'ni-qo'shniga va umuman jamiyat a'zolariga nisbatan odob mezonlari yoritilgan. Shuningdek, Imom Ahmad, Termiziy va Ibn Moja kabi muhaddislar rivoyat qilgan hadislar asosida Payg'ambarimizning axloqiy fazilatlarini va ularning mo'minlar uchun namuna ekanligi ko'rsatilgan.

Islom dini axloqiy poklik va ruhiy komillikni dinning ajralmas tarkibiy qismi sifatida taqdim etadi. Xususan, odob – ya'ni kishining o'zini tutish madaniyati, so'zda, amalda, niyatda va muomalada namoyon bo'ladigan xulqiy mezon sifatida – Qur'oni Karim va Hadislar asosida mo'minning eng asosiy sifatlaridan biri deb e'tirof etilgan. Bu tushuncha faqat tashqi madaniyat yoki ijtimoiy protokollar darajasida emas, balki iymonning ajralmas qismi, Allohga va bandalarga nisbatan muomala mezon sifatida ifodalangan. Qur'oni Karimda va Rasululloh ﷺ ning muborak hadislarida odob masalasi keng va chuqur yoritilgan bo'lib, bu masala Islom axloqshunosligining markazida turadi.

Qur'oni Karimda Alloh taolo mo'minlarga bevosita odob-axloq tamoyillarini o'rgatadi. Misol uchun, Qalam surasining 4-oyatida Rasululloh ﷺ haqida quyidagicha marhamat qilinadi:

"Va albatta, sen buyuk xulq uzradirsan" (Qalam, 4).

Ushbu oyat faqat bir shaxsga berilgan maqtov emas, balki butun ummat uchun axloqiy andoza, me'yoriy qoidaning asosidir. Bu xulq – yumshoqlik, halollik, sabr, fidoyilik, mehribonlik, kechirimlilik, insof va hayolik kabi sifatning mujassam ifodasidir. Rasululloh ﷺ ning go'zal axloqi Alloh tomonidan tasdiqlangan bo'lib, bu bilan u Zotning har bir fe'li biz uchun diniy, axloqiy va ijtimoiy dasturga aylangan.

Yana bir oyatda, Ahzob surasida Alloh taolo shunday deydi:

"Sizlar uchun Allohning Rasulida go'zal o'rnak bordir" (Ahzob, 21).

Bu oyat Rasululloh ﷺ ning hayotini, muomalalarini, gap-so'zlarini, insonlarga bo'lgan munosabatini faqat tarixiy tajriba sifatida emas, balki har bir mo'min uchun doimiy amal qilinishi lozim bo'lgan axloqiy model sifatida taqdim etadi. Shunday ekan, Qur'oni Karim mo'minlardan odob va axloqni Rasululloh ﷺ namunasi asosida o'zlashtirishni talab qiladi.

Odobga oid ko'plab oyatlarda insonning so'zlash madaniyati, boshqa kishilarga murojaat qilish uslubi, majlis madaniyati, ota-onaga va kattalarga bo'lgan muomala, ijtimoiy mas'uliyat, sabr va tavoze', hatto dushman bilan munosabatda ham odobdan chekinmaslik qoidalari aniq ifodalangan. Masalan, Luqmon surasida Luqmonning o'g'liga qilgan nasihatlar orqali odobiy qadriyatlar aniq ta'kidlanadi:

"Yuzingni odamlardan chetga burma va yerda kibr bilan yurma. Albatta, Alloh kibrli va maqtanchoq kishilarni yoqtirmaydi" (Luqmon, 18).

Bu oyatdagi tafsirlar odobning ikki asosiy yo'nalishini ochib beradi: Allohga nisbatan odob (iymon, tavoze', ibodatdagi hurmat) va bandalarga nisbatan odob (muomala, nutq, yurish-turishdagi madaniyat). Odamlar bilan muomala qilishda ham xushmuomala bo'lish, ularga yumshoq gapirish va ularni kamsitmaslik Islom odobining asosi sanaladi. Shu bois Qur'onda Fir'avn kabi zolimga ham muloyim so'z bilan murojaat qilish buyrilgani (Toha, 44-oyat) odobning umumiyliigi va komillik darajasini ko'rsatadi.

Hadisi shariflarda esa odob masalasi yanada chuqur va keng talqin etilgan. Payg'ambarimiz Muhammad ﷺ o'z axloqi, suhbatdoshlariga bo'lgan mehribonligi, muomala madaniyati, hatto eng oddiy odatiy holatlarda ham odobga rioya qilganliklari bilan musulmonlarga amaliy dars bo'lganlar. Rasululloh ﷺ aytganlar:

"Men chiroyli xulqni to'liq qilish uchun yuborildim" (Imom Ahmad, Musnad).

Bu hadis Rasululloh ﷺ isolati mohiyatining bir jihati axloqiy komillikka yetaklash ekanini ko'rsatadi. Boshqa bir hadisda shunday deyilgan:

"Mo'minlar orasida iymoni eng to'la bo'lgani – axloqi eng chiroyli bo'lganidir" (Termiziy, Sunan).

Shuningdek, u Zot aytganlar:

"Eng afzalingiz – oilangizga nisbatan eng yaxshi muomala qilganingizdir. Men esa oilamga nisbatan sizlardan eng yaxshisiman" (Imom Ibn Moja, Sunan).

Bu hadislar musulmon odam nafaqat jamoatda, balki oilaviy hayotda ham odob-axloq mezonlarini saqlashi lozimligini isbotlaydi. Axloq faqat jamoatchilik muomalasida emas, balki eng yaqin muhit – oila doirasida ham o'z kuchini ko'rsatadi.

Rasululloh ﷺ sahobalari bilan muomala qilganda ularga yengillik yaratgan, ularning kamchiliklariga qattiq gapirmasdan, nasihat shaklida yo'l-yo'riq ko'rsatgan. U Zot har bir inson bilan o'z darajasiga qarab muomala qilgan, yoshlarni mehr bilan, keksalarni hurmat bilan, nohaq so'z aytganlarni esa sabr bilan tinglagan va hikmat bilan to'g'rilagan. Bu o'z navbatida "husni muomala"ning eng oliy darajasidir.

Qur'oni Karim insoniyat hayotining barcha jabhalarini tartibga soluvchi muqaddas manba bo'lib, unda odob va axloqiy yetuklik masalasi markaziy o'rin tutadi. Odob – musulmon shaxsiyatining bezagi, iymonning dalili, jamiyatdagi ijtimoiy barqarorlikning poydevoridir. Qur'oni Karimda insonning Alloh taologa, Rasululloh ﷺ ga, ota-onaga, jamiyatdagi boshqa shaxslarga va umuman butun mavjudotga nisbatan qanday odobda bo'lishi lozimligi aniq mezonlar bilan belgilab berilgan. Islom olimlari fikricha, odob nafaqat tashqi ko'rinishdagi

madaniy muomala, balki insonning ichki ruhiy holatini, qalb pokligini, sabr-toqat va xushmuomalaligini ham qamrab oladi.

Qur'oni Karimda odobning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bu — so'zlashishdagi ehtiyotkorlik va chiroyli muomala madaniyatidir. Isro surasining 53-oyatida Alloh taolo shunday marhamat qiladi: “Bandalaringa ayting, ular eng yaxshi so'zlarni gapirsinlar. Chunki shayton ularning o'rtasiga nizo soladi. Albatta, shayton inson uchun ochiq dushmandir.”

مُيَبِّئًا عَدُوًّا لِلْإِنْسَانِ كَانَ الشَّيْطَانُ إِنَّ بَيْنَهُمْ بِنَزَعُ الشَّيْطَانِ إِنَّ أَحْسَنُ هِيَ الَّتِي يَقُولُوا لِعِبَادِي وَقُلْ

Bu oyat faqat muloqotdagi odob haqida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarning barqarorligi haqida hamdir. Ulamolar bu oyatni ijtimoiy nizolar oldini olish vositasi sifatida baholaydilar va musulmonlar orasidagi hurmat, mehr va sabrga asoslangan muloqotni targ'ib qiladi.

Qur'oni Karimda Rasululloh ﷺ bilan muomala qilish odobi ham alohida o'rin tutadi. Bu hol Nur surasining 63-oyatida quyidagicha ifodalanadi: “Payg'ambarning orangizdagi da'vatini bir-biringizning da'vatingizga o'xshatmang.”

بَعْضًا بِبَعْضٍ كَذَعَاءِ بَيْنَكُمْ كَذَعَاءِ الرَّسُولِ دُعَاءِ تَجْعَلُوا لَا

Bu oyatdan ulamolar Rasululloh ﷺ ning maqomi insoniy muloqotdan farqli ravishda muqaddas e'tirof etilishi kerakligini xulosa qiladilar. Bu faqatgina so'zda emas, balki amalda ham u Zotga bo'lgan hurmat, itoat va muhabbatda ko'zga tashlanmog'i zarur.

Qur'on odobga oid ko'rsatmalar orasida ota-onaga nisbatan muomala masalasiga alohida e'tibor beradi. Isro surasining 23-oyatida bu bunday bayon etilgan: “Parvardigoring faqat Uning O'ziga ibodat qilishingizni va ota-onaga yaxshilik qilishingizni amr etdi. Agar ularning biri yoki ikkalasi sening huzuringda qarib qolsa, ularga ‘uf’ ham dema va ularni jerkima, balki ularga chiroyli so'z ayt.”

وَقُلْ تَتَّبِعُوا هُمَا وَلَا أَفْتِ لَهُمَا تَقُلْ فَلَا يَكِلَاهُمَا أَوْ أَحَدُهُمَا الْكَبِيرَ عِنْدَكَ يَبْلُغَنَّ إِمَّا إِحْسَنًا وَبِالْوَالِدَيْنِ إِيَّاهُ إِلَّا تَعْبُدُوا إِلَّا رَبَّكَ وَقَضَىٰ كَرِيمًا قَوْلًا لَهُمَا

Bu oyatda “uf” deyish — eng yengil norozilik ifodasi — taqiqlanmoqda. Demak, undan og'irroq jerkish, ranjitish yoki haqorat qilish kabi holatlar butunlay man qilingan. Ulamolar bu oyatni til odobi va qalb tarbiyasi bilan bog'lashadi. “Qavlan karīma” — ya'ni go'zal so'z — bu nafaqat muloyim ohang, balki ota-onaga hurmat, muhabbat, iltifot va ijobiy tuyg'ularni ifodalovchi iboralardir. Bu oyat musulmon kishining nafaqat tilini, balki qalbini ham tarbiya qilishga da'vat etadi.

Qur'oni Karimda Rasululloh ﷺ ning axloqiy fazilatlarini haqida bevosita guvohlik ham berilgan. Qalam surasining 4-oyatida Alloh taolo bunday deydi: “Albatta, (ey Muhammad), siz buyuk xulq uzradirsiz.”

عَظِيمٍ خُلُقٍ لَعَلَىٰ وَإِنَّكَ

Bu oyat Rasululloh ﷺ ning butun hayoti axloqiy yetuklik namunasi bo'lganini bildiradi. Hadislarda bu holat yanada aniqlashtiriladi. Ummul-mo'minin Oisha (r.a.) Rasululloh ﷺ ning xulqlari qanday ekani haqida so'ralganda: “U zotning xulqlari — Qur'on edi”, deganlar. Bu esa musulmonlar uchun Qur'on va Rasul hayoti bir butun axloqiy maktab ekanini anglatadi. Tavhid va ehsonning odobiy asoslari: ota-onaga munosabat va shaxsiy hayot daxlsizligi haqida Qur'oni karimdagi mezonlar

Qur'oni Karimda tavhid – ya'ni Allohga yagona ibodat qilish – eng asosiy aqidaviy prinsip sifatida ta'kidlanadi. Biroq Alloh taolo ushbu buyuk aqidaviy tamoyilni bayon qilgan har bir oyatda unga ijtimoiy axloqiy mezonlarni, xususan ota-onaga nisbatan munosabatni bog'laydi.

Isro surasining 23-oyatida bu bog'liqlik quyidagicha bayon etiladi: "Parvardigoring faqat Uning O'ziga ibodat qilishingizni va ota-onaga yaxshilik qilishingizni amr etdi. Agar ularning biri yoki ikkalasi sening huzuringda qarib qolsa, ularga 'uf' ham dema va ularni jerkima, balki ularga chiroyli so'z ayt."

وَقُلْ تَنْهَرَهُمَا وَلَا أَفَ لَهُمَا تَقَلُّ فَلَا كِلَاهُمَا أَوْ أَحَدُهُمَا الْكَبِيرَ عِنْدَكَ يَبْتَغْنَ إِمَّا إِحْسَنًا وَبِالْوَالِدَيْنِ إِيَّاهُ إِلَّا تَعْبُدُوا إِلَّا رَبَّكَ وَقَضَىٰ
كَرِيمًا قَوْلًا لَهُمَا

Ushbu oyatda ikki buyuk mas'uliyat – tavhid va ehson – birga keltirilgan. Bu orqali Allohga to'liq bandalik faqatgina ibodatlar bilangina emas, balki ota-onaga chin yurakdan qilinadigan ehtirom va mehr bilan ham namoyon bo'lishi lozimligi anglatiladi. Imom Qurtubiy ushbu oyatni tafsirlar ekan, bunday deydi: "Alloh o'ziga ibodat qilishni amr qilib, darhol ota-onaga yaxshilikni ulug' amr sifatida zikr qildi. Bu shundan dalolat beradiki, ota-onaga yaxshilik qilish – Allohga yaqinlik yo'llaridan biridir." Ibn Kasir esa bu oyatni islomiy odobning eng yuksak namunasi sifatida e'tirof etgan.

Zamonaviy hayotda ota-onaga bo'lgan e'tibor ko'pincha moddiy yordam bilan cheklanib qolmoqda. Biroq oyatdagi lafzlar shuni anglatadiki, chinakam yaxshilik – bu ota-onaning dardiga quloq tutish, ularning his-tuyg'ulariga befarq bo'lmaslik, chiroyli, quvontiruvchi, xushmuomala gaplar bilan muomala qilishdir. Ulamolalar ushbu oyatdan quyidagi xulosa chiqaradilar: birinchidan, ehtirom – bu sukut va muloyimlik orqali namoyon bo'ladi; ikkinchidan, mehrlilik bo'lish – bu qalbni quvontirishga intilishdir; uchinchidan, fayzli so'zlar – ya'ni ota-onaga duo, madhiya va muhabbatli so'zlar bilan murojaat qilish eng afzal odob mezonlaridandir.

Mazkur oyat Qur'onda ota-onaga munosabat haqida eng chuqur saboqlardan biri bo'lib, u so'z, muomala va niyat darajasida ijtimoiy axloqiy kamolotga da'vatdir. Kim ota-onasiga ehtirom va mehr ko'rsatsa, Alloh unga dunyoda baraka, oxiratda jannatni va'da qilgan. Bu esa ilohiy amr, Payg'ambar merosi va musulmon axloqining tayanchlaridan biridir.

Yana bir muhim jihat shuki, Qur'oni Karimda odobning tarkibiy qismi sifatida insonning shaxsiy hayoti va hududining daxlsizligi qat'iy ta'kidlanadi. Bu haqida Nur surasining 27-oyatida shunday marhamat qilinadi: "Ey iymon keltirganlar! O'z uylaringizdan boshqa uylarga (egasining izniniz) kirmangiz — to ularning egalari bilan tanishib, salom bermaguncha. Bu sizlar uchun yaxshidir. Balki, eslatma olarsiz."

تَذَكَّرُونَ لَعَلَّكُمْ لَكُمْ خَيْرٌ دَلِكُمْ ۖ أَهْلِهَا عَلَىٰ وَتَسَلَّمُوا تَسْتَأْنِسُوا حَتَّىٰ يُؤْتِيَكُمْ غَيْرَ بِيُوتًا تَدْخُلُوا لَا ءَامَنُوا الَّذِينَ أَيُّهَا يَا

Bu oyat jamiyatdagi shaxsiy hayot daxlsizligining asosiy tamoyillarini belgilaydi. Tafsir al-Jalalayn asarida bu oyat tafsir qilinarkan, uylarga kirishda izn so'rash va salom berish odobini "yaxshilik" va "to'g'ri yo'l" sifatida e'tirof etadi. "تَسْتَأْنِسُوا" lafzi lug'aviy jihatdan "habardor qilish", "ruxsat so'rash" degan ma'noni bildiradi. Ibn Kasir tafsirida bu oyatning mohiyati quyidagicha ifodalanadi: "Alloh taolo mo'minlarga begona uylarga kirishda ehtiyot bo'lishni, ularning egalari bilan salomlashib, izn so'rashni buyurmoqda. Bu – poklik, hayo va inson sha'nini saqlash vositasidir."

Mazkur odob Rasululloh ﷺ ning hayotida amaliy tarzda aks etgan. Ibn Sirin rivoyat qiladi: "Men Abu Ma'bad bilan Imom Ibn Abbos roziyallohu anhu huzurlariga bordik. U bizdan: 'Sizlar oldin salom berdingizmi yoki darhol kirib keldinglarmi?' deb so'radi va mazkur oyatni misol keltirdi."

Qur'oni Karimda odobning asosiy jihatlaridan yana biri insonlar orasidagi ijtimoiy munosabatlarda g'iybat, tuhmat va gumon kabi illatlardan tiyilish zarurligidir. Hujurot

surasining 12-oyatida Alloh taolo mo'minlarga murojaat qilib shunday marhamat qiladi: "Ey iymon keltirganlar! Ko'p gumondan saqlaninglar. Chunki ayrim gumonlar gunohdir. Josuslik qilmanglar. Va bir-biringizni g'iybat qilmanglar."

بَعْضًا بَعْضُكُمْ يَغْتَابُ وَلَا تَجَسَّسُوا وَلَا إِثْمَ الظَّنِّ بَعْضَ إِنَّ الظَّنَّ مِنَ كَثِيرٍ اجْتَنِبُوا ءَامِنُوا الَّذِينَ يَأْتِيهَا

Ushbu oyat Qur'oni axloqning chuqur va nozik qatlamlarini ochib beradi. Avvalo, inson qalbida paydo bo'ladigan ichki holat – gumon qilishdan boshlab, uning ijtimoiy ifodasi bo'lgan josuslik va g'iybatgacha bo'lgan axloqiy muammolar qatoriga taalluqlidir. Ulamolar bu oyatni sharhlarkan, shunday deydilar: ba'zi gumonlar gunohga olib boradi, chunki ular asoslanmagan fikrlarga tayanadi, bu esa insonlar orasida ishonchsizlik va adovat paydo qilishga olib keladi.

Xulosa. Islom dini odob va axloq masalasini nafaqat ijtimoiy madaniyat, balki iymonning ajralmas tarkibiy qismi sifatida taqdim etadi. Qur'oni Karim va Payg'ambar Muhammad ﷺ ning hadisleri odobning barcha jabhalarini – Allohga munosabatdan tortib, ota-onaga, qo'ni-qo'shniga, hatto dushmanga bo'lgan muomalagacha – aniq va mukammal tarzda belgilab bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur'oni Karim (oyatlar tafsiri bilan)
2. Imom Ahmad ibn Hanbal. "Musnad" – "Men chiroyli xulqni to'liq qilish uchun yuborildim" hadisi.
3. Imom Termiziy. "Sunan" – "Mo'minlar orasida iymoni eng to'la bo'lgani – axloqi eng chiroyli bo'lganidir" hadisi.
4. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. "Tafsiri Hilol" – Qur'oni Karim tafsiri (o'zbek tilida).
5. Abdulaziz Mansur. "Islom axloqi asoslari" – Toshkent, 2015.
6. Islom ensiklopediyasi (O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi) – "Odob", "Axloq", "Husni muomala" maqolalari.
7. Yusuf Qaradoviy. "Al-Xalq al-Muslim" (Musulmonning xulqi) – arab tilida.